



**MAKTABDA KIMYO FANINI O'QITISHDA DIALOGLI USULLARDAN
FOYDALANISHNING AHAMIYATI**

**THE IMPORTANCE OF USING DIALOGIC METHODS IN TEACHING CHEMISTRY AT
SCHOOL**

S.X. Mullaboyeva

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti.

D.A. Shayzakova

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti.

M.M. Jo'rayev

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti.

M.B. Sultonova

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti.

S.O. Po'latova

Toshkent viloyati Chirchiq Davlat pedagogika instituti.

Annotation

The article discusses innovative methods that can develop students' speech, memory, and creativity, help organize lessons in a fun way, and engage students in the learning process, with examples of methods used in practice.

Keywords: motivation, context factor, method, method, dialogical teaching, speech, communication, ability.

Anotatsiya: Maqolada o'quvchilar nutqini, eslab qolish va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradigan, drslarni qiziqarli tashkil etishga yordam beradigan, o'quvchilarni dars jarayoniga jalb qila oladigan inavatsion metodlar haqida so'z yuritilgan bo'lib, amaliyotda foydalanilgan usullardan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, kontekst omil, metod, usul, dialogli o'qitish, nutq, muloqot, qobiliyat.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarning darsdagi faolligi o'quv jarayonining muhim tarkibiy qismini tashkil qiladi. O'quvchilar darsda o'quv topshiriqlarini bajarish davomida xulq-atvori, ijobiy his-tuyg'ulari va o'zidagi motivatsiyani namoyon qiladilar, holbuki, topshiriqlarni, o'quv vazifalarini bajarish davomida zerikishi: salbiy his-tuyg'ularni paydo bo'lishi eski yoki doimiy takrorlanadigan metodlardan voz kechish bilan bog'liq. Tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatadiki, dars jarayonida o'quvchining faolligiga bir qancha kontekst omillari, jumladan, o'qituvchining sinfdagi amaliyoti,



o'qituvchi va o'quvchi munosabatlarining sifati ta'sir qiladi. Bundan tashqari, o'quvchilarning sinfdagi nutqida faol ishtirok etishiga yordam beradigan o'quv dialogining alohida elementlariga e'tibor berilishi, dialogning fan nuqtai nazaridan kelib chiqib to'g'ri tuzilishi o'qituvchidan juda katta mahorat talab qiladi. O'quvchilar ilmiy, siyosiy nutqining rivojlanganlik darajasi turli yoshlarda turlicha bo'ladi. Dialogli o'qitish maktab amaliyotida kimyo darslarida kam uchraydi. Bundan tashqari, o'quvchilarning kimyo darslarida faolligiga ta'sir qilish yo'llarini qidiradigan kasbiy rivojlanish dasturlari va kichik guruhlarda muloqotni rivojlantirish usullaridan foydalanish, o'quvchi nutqini rivojlantirish bilan birga, atrofdagi odamlar bilan muloqotga kirishish, eslab qolish, fikrni to'liq va chiroyli ifodalay olish qolaversa ijodkorlik kabi qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'quvchilarni haqiqiy hayot tajribasiga tayyorlaydigan, doimo hayotiy, muhim bo'lib kelgan va ishlab chiqarish sanoati bilan bog'liq bilimlarni berish o'quvchini darsga to'liq jalb qilishga juda katta yordam beradi. Shu bilan birga bunday bilimlarni ifodalash uchun og'zaki nutq, ravonlik, grammatika va uni bog'lay olish, so'z boyligini rivojlantirish, o'qishni tushunish, o'rganish strategiyasi, ko'rish kabi mavzularga e'tibor qaratilishi maqsadga muvofiqdir.

Quyida yuqoridagi fikrlarni o'zida jamlagan inavatsion o'qitish usullaridan namunalar keltirilgan.

“Kimyo xalq og'zaki ijodida”

Maqollarda tushirib qoldirilgan so'zlar o'rniga kimyoviy moddalarning nomlarini mosini qo'yib to'ldirgan holda ifodalang.

O'yin maqsadi: O'quvchilarni kimyo fanidan hozir javoblikka, mustaqil fikrlashga, nutqini ravon bo'lishiga yordam beradi va o'rgatadi.

1. olma bilim ol, bilim olsang bilib ol.
2. ...imni to'kma shamolimni so'kma.
3. Arpa – bug'doy osh bo'lar, - tosh bo'lar.
4. Yo'qolgan pichoqning sopi
5. ... - zar, suvchi - ...gar.
6. Bir kalla – kalla, ikki kalla -
7. O'tmas umur bo'lmas, sinmas
8.chigachi hokim.
9. So'zing bo'lsa, ishing bo'ladi.
10. ... – g'o'zaning joni,
11. – unig darmoni.

Kimyoviy topishmoqlar

Ko'zga ko'rinmas, qo'lga tutilmas. (Havo)

Cofe so'zida qaysi elementlar qatnashgan? (Kobalt va temir)

Eng muhim kimyo qoidasi nima? (Hech qachon qoshiqni yalamang!)

Kimyoviy tajribalarda eng ko'p ishlatiladigan asbobning nomi nima? (probirka)

Platinaning ispan tilidan tarjima qilinganda qanday ma'noni anglatadi? (kumush)

Davriy jadvalda ishlatilmaydigan ingliz alifbosidagi yagona harf bu (J harfi)

“Kimyoviy vagonchalar” o'yini



“Kimyoviy vagonchalar” o‘yin usulidan o‘tilgan mavzuni mustahkamlashda qo‘llash mumkin.

Teplavozga asosiy mavzu yozib qo‘yiladi. O‘quvchi shu mavzuga mos birikmalarni yig‘ib, vagonchalarga joylashtirishi kerak.

O‘yin maqsadi: O‘quvchilarni hozir javoblikka, mustaqil fikrlashga o‘z-o‘zini boshqarishga, nutqini ravon bo‘lishiga o‘rgatish.

O‘yin jihozi: Didaktik tarqatma materiallar stol ustiga yoyib qo‘yiladi.

1-guruh: Oksidlar (vagonchalarga oksidlarga doir misollar qo‘yib nomlaydilar);

2-guruh: Asoslar (vagonchalarga asoslarga doir misollar qo‘yib nomlaydilar);

3-guruh: Kislotalar (vagonchalarga kislotalarga doir misollar qo‘yib nomlaydilar);

4-guruh: Tuzlar (vagonchalarga tuzlarga doir misollar qo‘yib nomlaydilar);

O‘yinning borishi: O‘quvchilar 7 kishidan iborat 4 guruhga bo‘linadilar. Guruh a‘zolari stol ustiga qo‘yilgan tarqatma materiallarni o‘z mavzulariga mos ravishda tanlab, tartib bilan vagon bo‘lib qo‘l ushlab turadilar. Poyezdni to‘g‘ri tuzgan guruh g‘olib chiqadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Ishmuxamedov R.J. “Ta’limda innovatsion texnologiyalar”. – T.: TDPU, 2008.-34 b.
2. Kati Vasalampi, Riitta-Leena Metsapelto, Jenni Salminen, Marja-Kristiina Lerkkanen, Marja Maensivu, Anna-Maija Poikkeus “Promotion of school engagement through dialogic teaching practices in the context of a teacher professional development programme”. Learning, Culture and Social Interaction.
3. O‘quvchilarning bilim va ko‘nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo‘llash, fikrlash va muloqot qilish qobiliyatlarini baholash. Sevara Xusniddinovna Mullabayeva., Dilbar Abdikayumovna Shayzakova Qurbonxo‘ja Akromxo‘ja o‘g‘li Artikov. Academic Research in Educational Sciences ISSN: 2181-1385. DOI: 10.24412/2181-1385-2022-4-1115-1122. Volume 3 | Issue 4 | 2022. Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12. SJIF: 5,7 | UIF: 6,1
4. Explain the topic of hybridization to schoolchildren in a systematic way. S.X Mullaboyeva, D.A Shayzakova, S.Y. Khushvaqtov - Academicia Globe: Inderscience Research, 2022. ISSN: 2776-1010. Volume 3, Issue 4, Apr, 2022.
5. M.G. Mukhamediev., D.J.Bekchanov, M.M. Juraev., S. Hushvaqtov., S. Botirov., D. Hrynshpan. New polymeric ligands based on polyvinylchloride. Дата публикации. 2021. Материалы конференции. Sviridov Readings - 2021. Страницы 67-67.
6. “Kimyo” kursini o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish usullari. Akbarova Muattarxon Tilavoldievna, Dilbar Abdikayumovna Shayzakova. Academic Research in Educational Sciences ISSN: 2181-1385 DOI: 10.24412/2181-1385-2022-5-852-859 Volume 3 | Issue 5 | 2022 Cite-Factor: 0,89 | SIS: 1,12 SJIF: 5,7 | UIF: 6,1
7. “Improving literacy on the basis of pisa requirements”Azamat Quvondikovich Matyakubov. Academic research in educational sciences VOLUME 2 | ISSUE 9 | 2021. ISSN: 2181-1385. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2021: 5.723. Directory Indexing of International Research Journals- CiteFactor 2020-21: 0.89. DOI: 10.24412/2181-1385-2021-9-463-466